

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAHIMBOYEVA DILNOZA QAHRAMON QIZI

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Rahimboyeva Dilnoza Qahramon qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq
madaniyatini rivojlantirish metodikasi3

Рахимбоева Дилноза Кахрамон кизи

Методика развития речевой культуры учащихся на уроках родного языка на
основе компетентностного подхода.....23

Rakhimboyeva Dilnoza Qakhramon qizi

The methodology of developing the speech culture of students in their native
language lessons based on a competence-based approach47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published word51

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAHIMBOYEVA DILNOZA QAHRAMON QIZI

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped.5109 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Navro'zova Muyassar G'aybullayevna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot :

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "6" yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (1820 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "20" dekabr da tarqatildi.

(2024-yil "20" dekabr da 1 - raqamli reestr bayonnomasi).



Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.I.G'aybullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotihi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

B.R.Adizov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida o'qituvchilarning samarali faoliyatga erishishning innovatsion mexanizmlari hamda ularning kasbiy kompetentligini, muloqot madaniyatini rivojlantirishga asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarbdir. Ona tili o'qitish bo'yicha ta'lim jarayonida o'qitishga motivatsion yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish hamda ularda muloqot qilishning samarali usullarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchilarda kasbiy mahorat hamda kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy masaladir. YUNESKO tomonidan belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning aniq maqsadlari doirasida ta'limga oid dasturlarni takomillashtirish, ularning ochiqqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda¹. Jumladan, o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ular nutqini o'stirish, ijodiy salohiyatini, dunyoqarashini kengaytirish, innovatsion o'qitish usullarini amaliyotga tatbiq etish, ta'lim resurslarini modernizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni muloqot qila olish faoliyatiga samarali tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ona tili o'qituvchilarining pedagogik kompetentligining yuqori darajasini ta'minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va interfaol usullarni takomillashtirishga urg'u berilmoqda. Albatta, bunday yondashuvlarning samarasi muloqot madaniyatining rivojlanganligida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'limga e'tiborni kuchaytirish borasidagi "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"² degan so'zlari sohada, ayniqsa, tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurligini isbotlamoqda. Bu borada ta'limning barcha bosqichlari qatori umumta'lim maktablaridagi ona tili ta'limi mazmunini modernizatsiyalash, o'quvchilarda fikrlash, tinglash, muloqot qila olish, shuningdek, bu jarayonga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Umumta'lim maktablarida ona tili ta'limini yangi bosqichga – ona tilining uzluksizligini ta'minlash bosqichiga ko'tarish, o'quvchilarda imloviy-uslubiy savodxonlikni o'stirish, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va shu asosda og'zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta'minlashda aks etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan

¹ <https://ru.unesco.org/fieldoffice/tashkent/>

² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarimiz. 1-jild. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018. – 124 b.

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida "Ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish"³ zarurligi alohida ta'kidlanganligi hamda mazkur mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv muammosi hamda ona tili darslarini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari, dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish masalalari o'zbek pedagogikasida U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, N.Azizxo'jayeva, G.Ibragimova, M.Tojiyev, N.Turdiyev, U.Mingboyev, O.Qurbonovalar⁴ o'rgangan bo'lsa, ona tilini o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari batafsil yoritilgan. Ona tili ta'limi mazmunini yangilash, nutq va tafakkur o'stirish masalalarida uzluksizlikni ta'minlash, integratsiyali ta'limni amalga oshirish, o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo'yicha Sh.Yusupova, X.Muhiddinova, M.Mirmaxsudova, G.Hamroyev, A.Hamroyev, X.Qurbanova, M.Saidov, M.Sobirovalar⁵ tadqiqot olib borgan, biroq o'quvchilarning nutqiy

³ www.lex.uz/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил, 21 октябрдаги "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-5850-сон Фармони. –Тошкент. 2019, 21 октябрь.

⁴ Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 305.; Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент, 2017. – Б. 68.; Азизхўжаева Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – С. 108.; Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD). – Тошкент, 2017. – Б. 137.; Тожиев М ва б. Педагогик технология – таълим жараёнига татбиғи. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 118.; Турдиев Б. Ёзма нутқни ўстириш юзасидан практикум. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 19-25.; Мингбоев У.Х. Ўқувчиларда коммуникатив компетенцияларни шакллантириш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD). – Тошкент, 2019. – Б. 137.; Қурбанова О.Б. 10-11-синф она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: Дисс... – Тошкент, 2021. – Б. 150.

⁵ Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш(ноаъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш). Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005.; Мухиддинова Х. ДТС: Салоҳиятли кадр тайёрлаш сари...//Тил ва адабиёт таълими, 2017, 7-сон, – Б. 8.; Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида). Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004.; Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. фалсафа доктори (PhD). – Самарқанд, 2019. – Б. 144.; Ҳамроев А. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Пед. фан. докт... дис. – Тошкент, 2020. – Б. 246.; Қурбанова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари. Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005.; Саидов М. Она тили дарсларида ўқувчилар фаоллигини ошириш. – Тошкент: РТМ,

мuloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari monografik tadqiq etilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Yefremova, G.Sayaxova, Y.Rujyeva, A.Zimnyaya, I.Baydenkolar⁶ izlanishlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish muammolari tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlardan Sh.Balli, K.Byuler, A.V.Xutorskoy, E.Benvenist, A.Blum, G.Spenser⁷ kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ona tili ta'limiga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish" mavzusi (2020-2024-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini belgilash va shu asosda muloqot qilish o'lchovini aniq belgilab beruvchi interaktiv, integrativ tamoyillarga asoslangan paradigmani tashkil etish yo'llarini nutq texnikasini egallash, sinergetik muloqot darajasini eruditsiya yo'li bilan shakllantirish;

umumiy o'rta ta'limning ona tili o'quv dasturida berilgan talablarning kommunikantlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayonida bosqichma-bosqich yuqoriga o'tishini matn bilan ishlashda "maqbul input" g'oyasi asosida pastdan yuqoriga (bottom-up) yondashuvida nutqiy oqimni fonemalardan gap yoki matnga qarab tushunish yo'li orqali takomillashtirish;

to'g'ri muloqotni tashkil etishda kommunikativ kompetensiyalarni ona tili o'qitish jarayonidagi integrallashgan hozirjavoblik, kirishimlilik, o'zaro hurmat kabi xususiyatlar hamda suhbat, dialogli bahs-munozara yo'li bilan mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish;

1993.; Собирова М. Ўзбек мактаблари юқори синф ўқувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиш. Пед.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994.

⁶ Ефремова Оксана Анатольевна. Индивидуализация обучения как средство формирования коммуникативной компетенции учащихся на уроках русского языка: Дис. ... канд. пед. наук. – Новосибирск: 2002. – С. 253.; Саяхова Л.Г. Методология и методическая система формирования лингвокультурологической компетенции тюркоязычных учащихся на уроках русского языка. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2010. – С. 294.; Ружьева Раиса Ефимовна. Формирование лингвистической компетенции на уроках русского языка (5-6 классы): Дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2002. – С. 212.; Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. – Москва. 2003. № 5. – С. 34-42.; Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы): Методическое пособие. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – С. 114.

⁷ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 392.; Бюлер К. Теория языка: Репрезентативная функция языка. – Москва: Прогресс, 1993. – С. 501.; Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты: Доклад на отделении философии образования и теории педагогики РАО 23 апреля, 2002.; Бенвенист Э. Общая лингвистика. – Москва: Эдиториал УРСС, 2002. – С. 436.; Blum A. The development of an Integrated Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol. 3, – P. 1-15.; Спенсер Г. Основания психологии. – Москва: ООО "Издательство АСТЛТД, 1998. – С. 560.

o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi motivatsion, kognitiv, jarayonli bosqichlarni refleksiya, "FEED BACK", energjayzerlardan, maktub yozishga undovchi usullardan foydalanish asosida rivojlantirish hamda joriy etish bo'yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish hamda joriy etish jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod hamda vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so'rov), tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida muloqot qilishni yanada samarali tashkil etishda chuqurroq fikrlash bosqichini va muloqot qilish o'lchovini aniq belgilab beruvchi interaktiv, integrativ tamoyillarga asoslangan paradigma asosida tashkil etish yo'llari nutq texnikasini egallash, sinergetik muloqot darajasini eruditsiya yo'li bilan shakllantirish orqali takomillashtirilgan;

nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha umumiy o'rta ta'limning ona tili o'quv dasturida berilgan talablarning kommunikanlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayonida bosqichma-bosqich yuqori darajaga o'tishi matn bilan ishlashda "maqbul input" (comprehensible input) g'oyasi asosida amalga oshirilib, pastdan yuqoriga (bottom-up) yondashuvda tinglovchi nutqiy oqimni fonemalardan gapga yoki matnga qarab tushunish yo'li orqali takomillashtirilgan;

8-9-sinf o'quvchilarining muloqot qilishida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi va modeli ona tilini o'qitish jarayonidagi integrallashgan hozirjavoblik, kirishimlilik, o'zaro hurmat kabi xususiyatlar hamda suhbat, dialogli bahs-munozara yo'li bilan mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish orqali takomillashtirilgan;

8-9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantiruvchi motivatsion, kognitiv, jarayonli bosqichlar refleksiya, "FEED BACK", energjayzerlardan, maktub yozishga undovchi usullardan foydalanish asosida rivojlantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ona tili ta'limida muloqot qilishni amaliy qo'llashga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

muloqotni amalga oshirishda monologik va dialogik nutqning o'rni aniqlanib, so'zlashish metodini tashkil qilish usul va yo'llaridan tizimli foydalanish mexanizmi zarurat ekanligi asoslangan;

muloqotni sifatli amalga oshirish, o'quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlararo aloqaning o'rni belgilab berilgan;

yuqori sinf o'quvchilarida kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirishda terminologik lug'atlardan foydalanilgan;

o'quvchilarda muloqotni sifatli amalga oshirishga imkon beruvchi didaktik vositalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tavsiya etilgan takliflar, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba va tahlillar, amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga oid fikr-mulohazalar ko'lamining kengaytirilganligi, muloqot qilish usullari, ona tilini o'quvchilarga o'rgatish metodikasining yangi xulosalar bilan boyitilganligi, o'quvchilarda muloqot qilish kompetentligining shakllanganlik va rivojlanganlik darajasini tahlil qilishga ko'mak beruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida o'quvchilarda muloqotni sifatli amalga oshirishga imkon beruvchi didaktik vositalar, metodik tavsiyalar va samarali ko'rsatmalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Muloqotni sifatli amalga oshirish hamda o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish, interaktiv ta'lim muhitini yaratishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili ta'limida o'quvchilarda nutqiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalariga doir ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida muloqot qilishni samarali tashkil etishda chuqurroq fikrlash bosqichini va muloqot qilish o'lchovini aniq belgilab beruvchi interaktiv, integrativ tamoyillarga asoslangan paradigma asosida tashkil etish yo'llarini nutq texnikasini egallash, sinergetik muloqot darajasini eruditsiya yo'li bilan shakllantirish orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan xulosalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan OT-F1-002-raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 21-sentabrdagi 01-04\5541-son ma'lumotnomasi). Natijada 8-9-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishga erishilgan;

nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha umumiy o'rta ta'limning ona tili o'quv dasturida berilgan talablarning kommunikantlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayonida bosqichma-bosqich yuqori darajaga o'tishi matn bilan ishlashda "maqbul input" (comprehensible input) g'oyasi asosida amalga oshirilib, pastdan yuqoriga (bottom-up) yondashuvida tinglovchi nutqiy oqimni fonemalardan gapga yoki matnga qarab tushunish yo'li orqali takomillashtirishga oid tavsiyalar maqsadida Buxoro davlat universitetida bajarilgan OT-F1-002-raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 21-sentabrdagi 01-04\5541-son ma'lumotnomasi).

Natijada yoshlar o'rtasida maqsadli va mazmunli muloqotni tashkil etish samaradorligi ortishi kuzatilgan.

8-9-sinf o'quvchilarining muloqot qilishida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi va modeli ona tilini o'qitish jarayonidagi integrallashgan hozirjavoblik, kirishimlilik, o'zaro hurmat kabi xususiyatlar hamda suhbat, dialogli bahs-munozara yo'li bilan mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish orqali takomillashtirishga doir tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat televideniyesining "Assalom Buxoro", "Najot bilimda" teleko'rsatuvlari hamda "Buxoro" radiosining "Ta'limdagi muammolar" nomli eshittirishlar ssenariysida foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat televideniyesining 2024-yil 21-sentabrdagi № 01-04-5541-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuvlar mazmunan boyib, teletomoshabinlarda turli toifadagi kommunikantlar bilan muloqotga kirishish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalar shakllanishiga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, o'rganilganlik darajasi baholangan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan.

Birinchi bobning *O'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida* deb nomlangan faslida o'quvchining muloqot jarayonida o'z nutqiga va nutqning til elementlariga ongli va ixtiyoriy munosabatda bo'lishni amalga oshirish, talaffuzining to'g'riligiga e'tibor qaratish umumta'lim maktablaridagi ona tili darsining muhim vazifalaridan biri ekanligi, ona tili o'qitishda layoqatlilikning bir qirrasini nutqiy kompetentlik ekanligi, mustaqil fikr olish; o'z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo'nda ifodalay olish; adabiy tilda so'zlash; yozma nutq savodxonligini yaxshi o'zlashtirgan holda imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olishga o'quvchida ko'nikma hosil qilish yo'llari haqida yoritilgan.

So‘nggi yillarda ona tili ta‘limida kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv kabi atamalar keng qo‘llanilmoqda. Shuni aytish o‘rinliki, ona tili o‘qitishda layoqatlilikning bir qirasi nutqiy kompetentlikdir. Shunday ekan, umumta‘lim maktabi o‘quvchilari nafaqat ona tilini o‘zlashtirishda, balki boshqa fanlarni o‘zlashtirish va keyinchalik kasbiy faoliyat doirasida ham, eng avvalo, nutqiy kompetentlikka ega bo‘lishi lozim. Nutqiy kompetentlik deganda, asli o‘zlashtirilgan bilimning mukammal va yetuk ifodasi sifatida qarash mumkin. Shu o‘rinda aytish mumkinki, umumta‘lim maktablarida ona tili ta‘limida nutqiy kompetentlikka xos malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalashga, muloqot qila olish darajasini egallashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Hozirgi paytda umumta‘lim maktabi o‘quvchilarini o‘qitishning faol jarayoniga jalb qilish jiddiy masala bo‘lib, uning ijobiy amalga oshishi har jihatdan o‘z ona tilini qay darajada o‘zlashtirishiga bog‘liqdir. Misol uchun, o‘z ona tilini mukammal bilmay turib zamonamizning asosiy ta‘lim talablaridan biri bo‘lib kelayotgan jahon tillari qatoridan o‘rin olgan biror-bir xorijiy tilni o‘zlashtirish yoki IT (Information technology) sohasini chuqur egallashga qo‘l urib bo‘lmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, nutqiy muloqot bilan bog‘liq masalalarni ta‘limning boshqa fanlari bilan integratsiyalashtiribgina qolmay, balki bugungi kunning dolzarb tarmoqlari bilan ham aloqasini o‘rganish joiz. Shu boisdan ham umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning nutqiy muloqot jarayoniga nafaqat e‘tibor berish, balki jiddiy nazorat etish ham ona tili ta‘limining asosiy diqqat markazida bo‘lishi lozim. Aks holda, kishilar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar, janjallar, avvalo, muloqot jarayonida bir-birini tushunolmasliklari yoki vaziyatni yaxshi tushuntirib bera olmasliklari orqali ham kelib chiqadi. Yoki, aksincha, nizo va konfliktlarning yechimi ham aynan muloqot orqali hal etilishi mumkin.

Tadqiqotimizning o‘rganish obyekti bo‘lmish nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari sifatida quyidagi jihatlarni sanab o‘tish kerak:

- a) kommunikativ – axborotni uzatish;
- b) interaktiv – hamkorlikda harakat qilish;
- d) perseptiv – birgalikda idrok etish.

Ishning *“Nutq madaniyatiga doir o‘quv materiallar mazmuni hamda o‘quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablar”* nomli faslida muloqotning dastlabki bosqichi sifatida kommunikativ jarayonni olsak, o‘qituvchi biron-bir mavzuni tushuntirar ekan, eng avvalo, kommunikativ (axborot uzatish) maqsadni o‘z oldiga qo‘yadi. Va o‘quvchilardan interaktiv harakatlar (hamkorlikda harakat qilish)ni talab qiladi. Chunki “qars ikki qo‘ldan chiqadi” deganlaridek, natijaga erishish uchun muloqotga kirishayotgan bilim beruvchi ham, bilim oluvchi ham birgalikda harakat qilishi shart. O‘qituvchi turli savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi va shu orqali ularni tegishlicha baholaydi. Aksariyat o‘quvchilar bu borada o‘z faolliklarini ko‘rsatadilar, biroq shunday o‘quvchilar ham borki, ular uchun darsda qo‘l ko‘tarib javob berish nihoyatda mushkul ish. Majburan turgizilgan o‘quvchi kommunikativ bosqichdayoq nutq so‘zlashga no‘noqligini isbotlaydi.

Yoki har ikki tomon ham birgalikda (interaktiv) harakat qildi ham deylik, ammo bildirilayotgan fikrni birgalikda idrok etmas ekan, mohiyatni birdek anglamas ekan (ya‘ni sodda qilib aytganda, qo‘shirnoq ichida tushunchalarda biri tog‘dan

kelsa, biri bog'dan kelishi nazarda tutilmoqda), bu holda muloqotning perseptiv jihatiga putur yetadi. Bu esa o'quvchining darsni yaxshi o'zlashtira olmayotganidan darak beradi. Agar muloqot jarayonida mana shu jihatlarga beparvolik bilan qaralsa, natijada bir-birini anglamaslik yuzaga keladi. Bu esa mantiqsizlikka, tushunmovchiliklarga va yana bir qator salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi tabiiy.

Muloqot jarayoni tafakkur, til, nutq va muloqot muhiti kabi unsurlardan tashkil topadi. Sifatli muloqotni amalga oshirish uchun bu unsurlar albatta inobatga olinishi shart. Aslida, ulardan birortasining muloqot tizimida bo'lmasligi ham mumkin emas. Ma'lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish muloqotning sifati va samarasidan dalolatdir. Muloqot yuzaga chiqishida nafaqat nutqiy vosita, balki nonutqiy vosita, vaziyat, kommunikativ holat ham ahamiyatli sanaladi. Aloqalarlashuvda hatto sukut (jim turish, gapirmaslik) ham nolisoniy vosita sifatida ishtirok etadi va o'ziga xos muomalaviy mazmun ifodalaydi. Albatta, sukut so'z yoki gapdan farqli o'laroq muloqot jarayonidan tashqari hollarda, ya'ni uyqu va shunga o'xshash holatlarda mazmun ifoda etmasligi mumkin. Muomalaning noverbal vositalari quyidagilarga xizmat qiladi: psixologik aloqani tashkil etish va uni ta'minlash, muomala jarayonini tartibga solishga, so'z matniga yangi ma'no bo'yoqlarini berish, ma'noni kerakli yo'nalishga qaratilishiga, emotsiyalarni, bahoni, qabul qilingan rolni, vaziyat ma'nosini aks ettirishga yordam berish.

Yana shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktabi o'quvchilarining muloqot jarayonidagi noverbal vositalardan foydalanishi ham o'ziga monand bo'lishi kerakligi ona tili darslari orqali singdirilishi lozim. Ya'ni o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham o'z jinsiga mos holdagi noverbal vositalardan qay darajada foydalanayotgani ham o'qituvchi tomonidan jiddiy nazoratga olinishi kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi”* faslida ona tili ta'limida o'quvchilarning “o'z fikrini savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; adabiy til me'yorlariga rioya qilish, uslubiy rang-baranglikdan foydalanish kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish vazifalarining belgilanishi orfoepik jihatdan og'zaki nutqning to'g'ri tuzilishini o'zlashtirish bilan bog'liq metodik yondashuvlarga e'tibor qaratiladi. Zero, tafakkur va nutqni uyg'un rivojlantirish masalasi o'quv materiallari mazmunining asosiy maqsadlaridan biridir.

Tafakkur va nutq o'stirish jarayoni bo'yicha ta'lim bosqichlarida uzluksiz ish olib borilmasa, o'quvchilar nutqida tez-tez uchraydigan: so'zlarning o'rnida qo'llanmasligi; mavzuning to'liq yoritilmasligi; gapda so'zlar, matnda gaplarning o'zaro bog'lanmasligi; matn qismlari va ular o'rtasidagi aloqadorlikka oid bilimlarning kamligi (sarlavha, epigraf, reja, kirish, asosiy qism, xulosa kabi); sarlavha yoki reja tuzishning to'g'ri tanlanmasligi; dars mualliflari fikrlari bilan cheklanish holatlari kabi muammolar bartaraf etilmaydi.

Bugungi davr nuqtayi nazaridan ham, muloqot odobi, nutq mas'uliyati, so'zlashish madaniyati va bu jarayonlar samaradorligini oshirish kabi masalalar tilshunoslikning ham, pedagogikaning ham asosiy muammosiga aylangan. Natijada til va shaxs mushtarakligi (antropotsentrizm) bilan bog'liq masalalarni tilshunoslik fani o'rgansa, muayyan nutqiy vaziyatda o'quvchilarning tildan oqilona va samarali

foydalanish kompetensiyasi bilan shug'ullanish ona tili ta'limining dolzarb masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot bir qancha fanlarning o'rganish obyekti bo'la oladi. Xususan, muloqotning psixologiya, tilshunoslikda o'rganilgan hamda yoritilgan aspektlaridan amalda unumli foydalana olish va bu bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borish, muayyan tajribalardan kelib chiqib ko'rsatmalar berish pedagogikaning munosib hissasidir.

“Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati bilimlarni o'zlashtirishdangina iborat bo'lmasdan, balki muloqot materiali sifatida axborotlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi...” – deydi professor Sh.Yusupova.⁸ O'quvchi shaxsining eng yaqin muloqotchisi sifatida o'qituvchi mahorati va ijodkorligi talab qilinayotgan bir davrda ularning dars jarayonidagi bevosita muloqot jihatlari, usullari, dars tashkil qilishdagi o'ziga xos yondashuv, albatta, o'quvchining nutqiy salohiyati rivojiga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va mavzuni o'zlashtirish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. Ayniqsa, ularning yosh xususiyatiga alohida e'tibor qaratish shart.

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda 2004-yilda himoya qilingan N.Saidrahimovanning “Maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasi mavjud. Aytish mumkinki, maktab tizimiga o'tganda o'quvchi shaxsi sifatida ona tilini ilmiy jihatdan o'rgana boshlaydi va shu tariqa savod chiqaradi. Afsuski, ayrim bolalarda ona tilini yaxshi o'zlashtira olmaslik holatlari va ular gapirganda turli nuqson va kamchiliklar uchrab turadi. Bu kabi nutq buzilishlarini o'rganish, bartaraf etishda o'quvchi nutqining rivojlanish bosqichi, me'yori, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ona tili ta'limining ahamiyati katta. O'smir yoshga borganda ularda nafaqat biologik, fiziologik, balki leksik birliklarda ham turli o'zgarishlarning guvohi bo'lamiz. Ular bu davrda o'zi haqidagi har qanday ma'lumotlarga ehtiyojmand bo'lادilar. O'zlarining ichki “Men”i kuchaygan va tashqi qiyofasiga chetdan qaray boshlagan bo'lishadi. Ayni shu davrda ularda refleksiyaning to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muloqotda yosh xususiyati bilan bir qatorda jins xususiyatini inobatga olib nutq so'zlash ham alohida ahamiyatli. O'qituvchilarning barchaga birdek muomala qilishini keng ma'noda ijobiy deb baholasak (ya'ni o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi va kimlarning farzandlari ekanligidan qat'iy nazar bir xil munosabatda bo'lishi), tor ma'noda esa bu – qo'pollikdir. Aksariyat tajribali o'qituvchilar dars paytidagi ayrim to'polonli vaziyatlarda aynan barchaning e'tiborini boshqa jins vakili oldida ularni tergalmasligini aytib ham tarbiyalashga muvofiq bo'lishadi. Sababi har xil jins vakillarida o'zaro andisha, or-nomus, uyat tushunchalari bir xil jins vakillariga qaraganda birmuncha kuchliroq bo'ladi. Sh.Iskandarova “O'zbek nutq odatining muloqot shakllari” risolasida xotin-qizlar nutqiga mansub “aylanay”, “o'rgilay”, “girgitton”, “qoqindiq” singari so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanishini, ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarda qo'llanishini ta'kidlab o'tgan.⁹

⁸ Юсупова Ш. Она тили ўқитиш мазмуни: (Она тили ва адабиёт ўқитувчилари учун “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслигидан услубий қўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 22 - б.

⁹ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. 19-бет.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 10-apreldagi 102-son buyrug'i hamda Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tasdiqlandi. Bu esa rivojlanish yo'lidagi ijobiy qadamdir. Mazkur o'quv dasturiga asosan tuzilayotgan adabiyotlarning mohiyatida ham yangicha yondashuv kuzatilmoqda. Unga ko'ra tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga katta ahamiyatning berilishi yosh avlodning ona tili fanini bevosita faqat nazariy qoidalar qurshovida emas, balki amaliy jihatdan yondashib mustaqil fikrlaydigan, olgan bilimlarini amalga tadbiq eta oladigan, har tomonlama qobiliyatini shakllantira oladigan motivlarni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'quvchiga o'zbek tilini o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.¹⁰ Shuning uchun ham so'nggi yillarda ona tili va adabiyot fani yuzasidan o'zlashtirilgan bilimni aniqlashga qaratilgan ona tili va adabiyot fanlaridan milliy test tizimi uchun test spetsifikatsiyasi ham joriy etildi.

8-9-sinf o'quvchilarini hozirgi o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, stilistik va orfografik me'yorlariga rioya qilgan holda gapirish malakasiga ega qilish bilan birga orfoepik normalarni o'rgatish ham maktabda ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Biroq gap so'zlash haqida ketganda, uning faqat talaffuz jihatigagina e'tibor berish bu masalaga tor ma'noda yondashishdir. Muloqotda so'zlarni to'g'ri tanlash, tinglovchiga qulay tushuna olish imkonini berish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, matnni o'qib tushunish ko'nikma va malakasini shakllantirish, kerak bo'lsa, har bir so'z, birikma va gapning barcha qirralaridan o'rinli foydalanish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qarash hamda nutq madaniyati va barcha nutqiy talablarga alohida rioya etish malakasini rivojlantirish ham, ayniqsa, 8-9-sinf o'quvchilari uchun muhim jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotning *“O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga innovatsion-integratsion yondashuv”* nomli ikkinchi faslida ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil hamda ijodiy tafakkurini o'stirish, fikrini og'zaki va yozma shakllarda nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri, aniq ifodalash, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, matnni o'qib tushunish ko'nikma va malakasini shakllantirish ona tili ta'limining asosiy maqsadi ekanligi xususida fikr bayon etiladi. Bu esa o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Shunday ekan, ona tili darslarida o'quvchilarni to'g'ri, mustaqil va ijodiy tafakkur qilishga, o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda ifodalay olishga o'rgatish, nutqiy kompetentligini oshirish, har bir so'zning ma'nosini to'g'ri anglab, ularni xalqimiz milliy madaniyati, tafakkur dunyosi qay darajada rivojlanganligini tushungan va saqlagan holda so'zlash hamda kelajak avlodlarga shundayligicha

¹⁰ Алпанова Ш. Ўзбек тилида руҳий ҳолатнинг акс этиши (монография). – Тошкент.: Академнашр, 2019. 26-б.

yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shuning uchun ham nutqiy muloqotni rivojlantirish uchun uni turli texnologiyalar asosida tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot ishimizga ahamiyatli bo'lgan dialog va uni ona tili darslarida qanday tashkil qilish mumkinligi bo'yicha fikr yuritamiz. Ma'lumki, "dialog – o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta'minlaydi.

"2.1-rasm". O'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning texnologik modeli



Muloqotning maqsadga ko'ra 8 ta funksiyasi mavjud: 1. Kontakt. 2. Aloqa o'rnatish. 3. Undovchilik. 4. Koordinatsion. 5. Tushunish. 6. Amotiv (hissiy aloqa) hissiyotni o'zgartirish. 7. Munosabat o'rnatish (o'z o'rnini anglash). 8. Ta'sir ko'rsatish. (L.A.Korpenko)

Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

1. Monolog;
2. Dialog;
3. Polilog.

Biroq ona tili darslarini tashkil etishda eng ahamiyatlisi motivatsion muloqot bo'lib, bunda har biri o'quvchini darsga qiziqitira olish, shuningdek, o'quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari orqali dars olib borish tushuniladi. Ona tili darslarining eng asosiy birlamchi maqsadi nutq va tafakkur o'stirish. Maqsadni sifatli amalga oshirish uchun esa turli usul va metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Umuman, o'quvchilarning o'zbek tilidagi nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish ham kichik-kichik maqsadlarga mos bilim, malaka va ko'nikmalar ko'rinishidagi parametrlar sifatida oldindan belgilab chiqilishi kerak. Masalan, dialogdagi replikalar mazmuni ham alohida birliklarni tashkil etadi. Nutqiy muloqot faqat savol-javoblardangina iborat emas, albatta: suhbatdoshni eshitish, javobdan so'ng aks savol berish, savolni rad etish, suhbatdoshning savoliga aks savol bilan murojaat etish, uni biror ish-harakatga undash, taklif qilish kabi turli shakllarda va mazmunda o'tadi. Bunda turfa leksik va grammatik vositalardan, qolip gaplardan foydalaniladi. Shuning uchun nutqiy muloqotni (dialogik nutqni) o'zlashtirish masalasiga keng yondashish talab etiladi.

O'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini egallashda muomala madaniyatiga doir **bilimlar** muhim rol o'ynaydi. Bunday bilimlar o'zbek tili darsliklarining ayrim matnlarida ("Sharqona odob", "Mehmondo'stlik", "Sovg'a berish odobi", "Bobom xotiralari", "Yaxshi so'z – yaxshi husn", "Siz ham, sen ham bir og'izdan chiqadi") aks etgan. Ushbu matnlardan o'git va maslahatlardan qoidalar sifatida foydalanish mumkin. Ushbu matnlarda qolip gaplarga doir ayrim bilimlar ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, 6-sinf darsligida "Sharqona odob", "Bobom xotiralari", "Sovg'a berish odobi", "Mehmon kutish" matnlarida kishi biror narsani tushunmay tursa, odob va muloyimlik bilan qayta so'rashi, "Mehmon kutish" matnida mehmon kutish odobi, mehmonni kutib olish va unga ko'rsatiladigan hurmat va muomala odobi ifodalangan, "Sovg'a berish" matnida sovg'a berish va bu jarayondagi muomala odobi haqida, shirinso'z bo'lish, sizlash haqida maslahatlar keltirilgan. Masalan: "Bobom xotiralari" matnida quyidagi gaplar aytiladi: gapni o'ylab gapir..., lekin o'zbek tilidagi muloqot odobi yoki o'zbek xalqi muloqot odobiga doir qadriyatlarga juda boy, darsliklarda bu boylikdan juda kam darajada foydalanilgan, ayniqsa, 6-sinf dan boshqa darsliklarda bunday ma'lumotlarning yo'qligi, o'quvchilarning sharqona nutqiy muloqot madaniyatini egallashiga yetarli imkon bermaydi.

Dissertatsiyaning **"Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni bayon etilgan.

Ona tili o'qitishda muloqot qila olish ahamiyatli bo'lganligi bois, biz ham o'z tajribamizda o'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikmalariga qo'yilgan talablar va ularga asoslanib, tajriba olib bordik. Ya'ni, tadqiqot jarayonida 8-9-sinf o'quvchilarida ona tili fanini o'qitishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni tajriba-sinovdan o'tkazishda o'quvchilarning muloqot mahoratini ifoda etuvchi maxsus metodikadan foydalandik.

Ona tili o'qituvchilariga ham bir qator savollar bilan murojaat qildik. Savollar anketa tarzida o'tkazilib, ularga tarqatildi. O'qituvchilarning savollarga qaytargan javoblari 2-ilovada keltirilgan.

